

TA'LIM JARAYONIDA HAYOTIY MISOLLARDAN FOYDALANISHNING
DOLZARBLIGI KEYS-STADI TA'LIM METODI

Sardor Kutliyev

E-mail: sardorkutliyev@gmail.com

Mamatov javohir O'ybek o'g'li

E-mail: javoxirbekk20017@gmail.com

Gabidullin Ruslan Dalerovich

E-mail: ruslongabidullin@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu Tezisdagi ta'lim jarayonida hayotiy misollardan foydalashning ahamiyati va dolzarbligi shu bilan birga o'quvchilarning darsni yanada tushunishida hayotiy misollardan foydalanishning qanchalik muhimligi haqida aytib o'tamiz. Amaliy misollardan foydalanish darsni yanada chunarli va qiziqarli qilishi bilan birga darsda barcha o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Kalit so'zlar: Keys stadi metodi, ta'lim, chushunishni oshirish, hayotiy misollardan foydalanish.

Keys-stadi ta'lim metodini turli holatlarni o'rganishda qo'llash – hayotdan olingan odatdagi vaziyatlarni o'rganishni tashkil etish yoki sun'iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta'lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta'lim jarayonidan iborat. Bu metod ta'lim oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo'shimcha axborotlarni yig'ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni echish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo'yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi. Bu metodning nomi inglizcha “**case-study**” so'zlaridan olingan. Bunda “**case**” – yashik, quti, gilof, jild, “**study**” – o'rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug'ullanish, o'quv fani, saboq olish, o'qish ma'nolarini bildiradi. Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (GBM) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi. Keys-stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod muammolarni hal qilishda bosqichlarini loyihalash bo'yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi.

Muayyan hayotiy vaziyatlarga bag'ishlangan keyslardan foydalanish ta'lim jarayonini haqiqiy hayot bilan bog'laydi. Keysni ko'rib chiqishda ta'lim oluvchilar

ta'lim olish jarayonini yaratadilar. Shu jarayondagi o'zaro harakatda ularning haqiqiy fikr almashish holatlari kelib chiqadi. Keys ta'lim oluvchilarga tahlil qilish, qiyoslash yo'llarini qidirish va muammoni echish erkinligini beradi. Shu bilan bir qatorda ta'lim jarayonida ushbu metodni qo'llash o'quvchilarning chushunish va anglash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Keys" va "keys-stadi" tushunchalarining ma'no-mazmuni ko'p qirrali bo'lib, shunga ko'ra quyida ularning asosiy xususiyatlarini to'liqroq aks ettirish maqsadida ko'p variantli ta'riflari berildi.

Keys – bu

•ta'lim oluvchilarning ma'lum maqsadlardagi hayotiy vazifalarni bajarishlari bo'yicha vaziyatning bayoni, uni tushunish va baholashga imkon beradigan hamda muammoni ifodalash uchun, uning maqsadga muvofiq yechimini izlashlari uchun kerak materiallar to'plami;

•belgilangan mavzu yoki muammo va uning yechimiga doir qo'shimcha axborotlar, audio, video, elektron tashuvchilar, o'quv-uslubiy materiallar yig'indisi;

•muammoni hal qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ularning natijalari na xulosalar.

Bunda shunday aniqlik kiritish kerak: moliyaviy fanlarga ixtisoslashgan maktablarda keyslar salmog'i asosiy fanlar – menejment, marketing, axborot texnologiyalari, xodimlarni boshqarish va shu kabilardan iborat maktablardagiga nisbatan ancha kamdir.

Mamlakatimizdagi ta'lim sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo'llaniladi. Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarida ham o'qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilayapti.

Keys-stadining mohiyatli belgilari quyidagilari kiradi:

•Asosiy parametrlari bo'yicha muayyan diskret vaqtda ishlarning real ahvolini yana qayta tiklaydigan vaziyat shaklidagi holatda taqdim etilgan institustional tizim modelining mavjudligi.

•Berilgan vaziyatning muammoliligi.

•Vaziyatning to'liq chizmaiy emasligi va buning oqibati sifatida, unda mustaqil, qolipn bo'lmagan yechimlarni talab qiladigan mavhumlikning mavjudligi.

•Yechimlarning ko'plab muqobil jihat (al'ternativ)larga egaligi har bir qatnashchi o'zining bilimi, tajribasi va sezgi(intuistiya)sidan kelib chiqib o'z variantini taklif qiladi.

- Muammoli vaziyat optimal yechimining yakka tartibda, so'ngra jamoa bo'lib ishlab chiqilishi va ommaviy taqdim etilishi (shuningdek, keys bilan mutlaqo yakka tartibda ishlashga va natijalarni yakka tartibda taqdim etishga ham yo'l qo'yiladi).

- Muammoli vaziyat tahlili va uning yechimini ishlab chiqishdagi yagona maqsad.

- Faoliyat natijalarini guruh bo'lib baholash tizimi.

- Ta'lim oluvchilarda boshqariladigan hissiy (emostional) keskinlikning mavjud bo'lishi.

- O'qituvchi va tinglovchi ta'lim jarayonida ayni bir paytda ham mas'ul, ham erkin bo'ladi:

Keyslar samarali foydalanilsa o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada osonlashtirib chunish va anglash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shularni inobatga olgan holda samarali va chunarli keyslarni tayyorlash dolzarb masalalardan bir bo'lib qolmoqda. Bu metoddan foydalanishda o'quvchilarning darsga qiziqishlari yanada oshdi va eng asosiysi o'quvchilarning o'zlari mustaqil ravishda yangi bilimlarni izlab o'z ustilarida mustaqil ravishda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi bilan bir qatorda yangi bilimlarni tez va oson o'rganadilar.